Jahon kimyo sanoati yangiliklari: flippinlik olimlar termosezgir polimerlarni olishning yangi usulini ishlab chiqishdi

// 22.10.2024
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/jahon-kimyo-sanoati-yangiliklari-flippinlik-olimlar-termosez



Filippinning Diliman universiteti kimyogarlari harorat o‘zgarishi bilan o‘z xususiyatlarini o‘zgartiruvchi issiqlikka sezgir polimerlarni olishning arzon usulini ishlab chiqdi. Ushbu polimerlar tibbiyot uchun muhim - ular dori vositalarini yetkazib berish, to‘qimalarni tiklash va gen terapiyasida qo‘llaniladi.

Polimerlarni sintez qilishning mavjud usullarini nazorat qilish qiyin bo‘lib, bu ularning samadorligini kamaytiradi. Filippinlik olimlar RAFT polimerizatsiya usulidan ikkita monomer ya’ni, dietilenglikolmetakrilatning metil efiri (Degmema) va metilmetakrilat (MMA) bilan haroratga sezgir polimerlarni olish uchun foydalanishdi. Ular erituvchi sifatida esa atrof-muhitga kamroq zarar yetkazuvchi ionli suyuqlikdan foydalanishgan.

Ushbu usul polimer zanjirlarining uzunligini nazorat qilishga imkon yaratadi va xususiyatlarini yaxshilaydi. Yangi polimerlar biomoslashuvchan, ya’ni tana to‘qimalari bilan o‘zaro ta’sir qilish uchun xavfsiz bo‘lib chiqdi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati